

## MARKAZIY OSIYODAGI HARBIY-SIYOSIY VAZIYATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.

**Mirzayev Nuriddin Xamidulayevich**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistraturasi tinglovchisi,  
podpolkovnik*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi harbiy-siyosiy vaziyatning o'ziga xos jihatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, xavfsizlik, xavf-xatar, ommaviy, qonun, terrorizm, ekstremizm.

O'zbekiston Prezidenti mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga doir strategik qarashlarini 2017 yilning sentabr oyida Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida batafsil bayon qildi. 2017 yilning noyabr oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi konferensiyada davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo, jumladan, Afg'onistonda mustahkam tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi qo'shma sa'yi-harakatlarning keng qamrovli dasturini taklif etdi. Bu mamlakatimiz Prezidenti Markaziy Osiyo davlatlari bilan amaliy, o'zaro manfaatli va yaxshi qo'shnilik munosabatlarini shakllantirish, mintaqada xavfsizlikni ta'minlashni tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilaganidan va bugungi kunda bu borada dadil amaliy qadamlar tashlayotganidan dalolat. 2018 yilning 9 yanvarida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi qonunida jahondagi harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko'lami kengayib borayotganligi – geosiyosiy qarama-qarshilikning kuchayishi, mojarolar va tang vaziyatlarni kuch ishlatib hal etishga bo'lgan yondashuvning ustunlik qilishi, kuch ishlatish, shu jumladan, ommaviy qirg'in qurolini qo'llash ehtimoli oshganligi, harbiylashtirish, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollashganligi, axborot makoni va kibermakonda o'zaro kurash kuchayganligi bilan tavsiflanishi belgilangan. Qonunda keltirilganidek, Markaziy Osiyodagi vaziyatga terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va transchegaraviy jinoyatchilikning saqlanib turgan xavf-xatarlari va tahdidlari salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Afg'onistondagi noqonuniy qurolli tuzilmalar faoliyati mintaqqa xavfsizligiga alohida xavf solmoqda. Mazkur omillar harbiy kuchni qo'llash zaruriyatini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday sharoitda davlatning mudofaa salohiyati harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan tahidlarni jilovlash, neytrallashtirish va tugatishning asosiy vositalaridan biri bo'lib qoladi.

Doktrinada belgilanganidek, harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan asosiy tahdidlar quyidagilardan iborat:

- harbiy harakatlarning O'zbekiston Respublikasi hududiga ko'chishi xavfi bo'lgan harbiy mojarolar;
- O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi yaqinida qo'shinlar turkumlarini mintaqada kuchlar mutanosibligi buzilishiga olib keladigan tarzda hamda O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuzga tayyorgarlik ko'rilayotganidan darak beradigan tarzda namoyishkorona ko'paytirish;
- O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga va hududiy yaxlitligiga tajovuz qilish;
- bevosita O'zbekiston Respublikasi hududiga yoxud qo'shni davlatlarning chegara oldi tumanlariga tashlash uchun noqonuniy qurolli tuzilmalarni tashkil etish, o'qitish va quollantirish;
- narkotrafik, qurol-yarog', o'q-dori, zaharli va portlovchi moddalar, qo'poruvchilik-terorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan boshqa vositalar kontrabandasi bilan bog'liq transchegaraviy va xalqaro uyushgan jinoiy faoliyat;
- axborot-kommunikatsiya makonida O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, mustaqilligiga, hududiy yaxlitligiga qarshi qaratilgan hamda aholining tinch hayotiga tahdid soluvchi mafkuraviy va psixologik harakatlar.

Mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- milliy darajada, davlat miqyosida harbiy-siyosiy vaziyatni nazarda tutadi;
- mintaqaviy darajada, harbiy-siyosiy sohadagi hamkorlik mintaqaviy darajada amalgaoshirilishi bilan tavsiflanadi;
- xalqaro darajada BMT, boshqa xalqaro tashkilotlar va institutlarning xalqaro xavfsizlikni ta'minlash va hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishtirok etish.

Milliy daraja Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi harbiy qurilish bilan bog'liq. Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishgan paytlaridan xalqaro terroristik tashkilotlarning real tahdidlariga to'qnashdi. Mintaqamiz tabiiy resurslarga boy, bu yerda ko'plab mamlakatlar va butun mintaqalar rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan noyob madaniyat va taraqqiyot salohiyati mavjud. Ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishmoqda, beqarorlik va qarama-qarshilik o'choqlariga tutash bo'lgan ushbu mintaqa yaqin va uzoq xorijda ro'y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta'sirini his etmoqda. Demak, davlat harbiy tashkilotining o'z maqsadiga muvofiq harakat qilishga shayligini saqlab turish talab etiladi.

Mintaqaviy darajada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolarini hal etish, shu jumladan:

- Afg'onistondagi vaziyatni tartibga solishga ko'maklashish, transchegaraviy suv oqimlari resurslaridan foydalanish masalalarini hal etish, chegaralarni delimitatsiya va

demarkatsiya qilish jarayonlarini tugallash, ekologik barqarorlikni ta'minlash, favqulodda vaziyatlarga hamda tabiiy va texnogen xususiyatdagi transchegaraviy tahdidlarga e'tibor qaratish;

- ekstremizm, terrorizm, uyushgan hamda transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashishda o'zaro hamfikrlik va amaliy hamkorlikni mustahkamlash;
- mintaqqa davlatlari o'rtasida harbiy sohadagi hamkorlikni kengaytirish, ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash;
- xalqaro harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish.
- xalqaro darajada xavfsizlikni ta'minlash va hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarida ishtirok etish;
- manfaatdor mamlakatlar bilan strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish va saqlab turish; ommaviy qirg'in quollarini tarqatmaslik borasidagi global sa'y-harakatlarga ko'maklashish;
- ekstremizm va xalqaro terrorizm ko'rinishlarining oldini olish va ularga chek qo'yish;
- mintaqqa davlatlarining umumiy tashqi harbiy xavfi quyidagilar: milliy chegaralar yaqinida harbiy nizolarning mavjudligi; tashqi kuchlarning buzg'unchi elementlardan foydalangan holda mintaqqa davlatlarining ichki ishlariga aralashuvi;
- mintaqqa davlatlarida xalqaro terroristik va radikal tashkilotlarning faoliyati.

Umumiy ichki harbiy xavf: mintaqaning ayrim davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy noturg'unlik; mintaqaning ba'zi bir davlatlarida noqonuniy qurolli birlashmalarning faoliyati; terroristik aktlar yoki boshqa qonunga xilof qo'poruvchilik harakatlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin bo'lgan quollar, o'q-dorilar, portlovchi va boshqa moddalarning noqonuniy aylanishi.

Shundan kelib chiqqan holda mintaqqa davlatlari milliy Qurolli Kuchlarini rivojlantirish yo'li bilan harbiy xavfsizlikni ta'minlashga harakat qilmoqda. Bizning davlatimiz ham yetakchi jahon armiyalari standartlariga yaqin Qurolli Kuchlar tuzishga urinmoqda. Raketa qo'shinlari va artilleriya, aviatsiyani modernizatsiyalash va bronetank texnikalarini qayta quollantirish sharoitida qo'shinlar boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimini yaratish bo'yicha ishlarni olib bormoqda. Shuningdek, milliy kadrlarni tayyorlashga, qurol-yarog' va harbiy texnikanijangovar shay holda saqlab turishga, havo hujumiga qarshi vositalarni modernizatsiyalashga e'tibor qaratilmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, Markaziy Osiyo ni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirish mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimiz Prezidenti uning yechimi sifatida quyidagilarni taklif etdi:

1. Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmini oshirish hamda kooperatsiyani mustahkamlash.
2. Mintaqaning tranzit-logistika salohiyatidan yanada samarali foydalanish va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirish.

3. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash.

4. Davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini tezda va uzil-kesil yakuniga yetkazish.

5. Mintaqada suv resurslaridan adolatli foydalanish.

6. Madaniy-gumanitar aloqalar, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik.

Xulosa ornida, bu dolzarb masalalarning yechimi mintaqada harbiy-siyosiy vaziyat barqarorligining shakllanishiga yordam beradi. Tashqi siyosatimizning ochiqlik va ishonch muhiti esa mintaqamizdagi tinchlik hamda xavfsizlikni ta'minlashdan tashqari, boshqa ko'plab ijobiy o'zgarishlarga ham olib kelmoqda. Bir so'z bilan aytganda, olam bizni, biz olamni qaytadan kashf etmoqdamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.Tilavoldiev. "General Didactic Principles of Pedagogical Technologies." Journal of Pedagogical Inventions and Practices 6 (2022): 94-97.

2. Khasanov N., Yusufjonov, K., Yusupov, A., & Topivoldiyev, J. (2022). PATRIOTISM IS THE HIGHEST VIRTUE AND DIGNITY. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(4), 4-7.

3. Khasanov N., Yusufjonov, K., Yusupov, A., & Topivoldiyev, J. (2022). PATRIOTISM IS A GREAT VALUE. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(5), 12-15.

4. Khasanov N., Yusufjonov, K., Yusupov, A., & Topivoldiyev, J. (2022). EDUCATING THE YOUNG GENERATION IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM. FACTORS. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(5), 8-11.

5. Khasanov N., Yusufjonov K., Yusupov A., & Topivoldiyev J. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE FAMILY IN EDUCATING THE YOUNG GENERATION IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(5), 1-4.

6. Khasanov N., Yusufjonov K., Yusupov A., & Topivoldiyev J. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF YOUTH IN THE CREATION OF THE ENLIGHTENED SOCIETY" NEW UZBEKISTAN". INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(5), 5-7.

7. Khasanov N., Yusufjonov K., Yusupov A., & Topivoldiyev J. (2022). THEORETICAL AND PRACTICAL PEDAGOGICAL FUNDAMENTALS AND LAWS OF FORMATION OF PROFESSIONAL CULTURE OF MILITARY EDUCATION. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(4), 1-3.

8. Khasanov N., Yusufjonov K., Yusupov A., & Topivoldiyev J. (2022). SPITAMEN'S HORSE CATCHED THE RIVER AND CAUSED ONE OF THE ISLANDS BETWEEN THE RIVER. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(4), 8-10.
9. Nurmukhammad K., Kuyoshbek Y., Arabboy Y., & Jasurbek T. (2022, May). PEDAGOGICAL TECHNOLOGY AND ITS SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS AND RULES. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 1-6).
10. Nurmukhammad K., Arabboy Y. Kuyoshbek Y., & Jasurbek T. (2022). THE STRUGGLE AND DEFENSE OF SULTAN JALALIDDIN MANGUBERDI AGAINST MONGOLIA. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(17), 1-3.
11. Nurmukhammad K., Kuyoshbek Y., Arabboy Y., & Jasurbek T. (2022). AMIR TEMUR'S MILITARY ACTIONS. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(17), 1-9.